

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–iyul holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilga nisbatan 2650 taga o'sdi.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 1,66 % f.p ga kamaygan.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2253 taga oshgan.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 2814 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 319 taga ko'p.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 561 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2268 (8,7 %) taga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28271 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Farg'ona (18,6 %), Qo'qon (13,7%), Marg'ilon (9,8%) shaharlarida, Uchko'prik (5,1 %) va Dang'ara (4,8 %) tumanlarida kuzatilmoxda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda*


01.08.2018 y.



Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'onा viloyati	28271	100,0	27385	98,3
Far'gona sh.	5271	18,6	5169	18,3
Qo'qon sh.	3876	13,7	3822	13,5
Quvasoy sh.	812	2,9	799	2,8
Marg'ilon sh.	2769	9,8	2753	9,7
tumanlar				
Oltiariq	1198	4,2	1191	4,2
Qo'shtepa	923	3,3	908	3,2
Bog'dod	962	3,4	959	3,4
Buvayda	1245	4,4	1226	4,3
Beshariq	880	3,1	867	3,1
Quva	1167	4,1	1137	4,0
Uchko'prik	1455	5,1	1414	5,0
Rishton	862	3,0	830	2,9
So'x	684	2,4	684	2,4
Toshloq	1247	4,4	1223	4,3
O'zbekiston	1275	4,5	1242	4,4
Farg'ona	989	3,5	952	3,4
Dang'ara	1349	4,8	1326	4,7
Furqat	665	2,4	658	2,3
Yozyovon	642	2,3	640	2,3



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,3 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 1,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolmoqda.



faoliyat ko'rsatayotganlar




faoliyatsizlar


Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,1 % sanoatda, 8,2 % qurulishda, 21,3 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,5 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da

01.08.2018 y.




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



	01.08.2017 y.	01.08.2018 y.
■ Ro'yxatdan o'tgan	25,6	28,3
■ Faoliyat ko'rsatayotgan	25,2	27,8


2018 yil yanvar-iyul holatiga 2814 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 12,8 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (485 ta), Qo'qon (357 ta), Marg'ilon (231 ta) shaharlarida, Oltiariq (170 ta), Uchko'prik (152 ta) va Buvayda (148 ta) tumanlari-da tashkil etilgan. Eng kam So'x (55 ta) hamda Qo'shtepa (62 ta) tumanlari-da tashkil etil-gan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (726 ta), savdo-da (540 ta), qurilishda (280 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (170 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (136 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (58 ta), tashish va saqlashda (102 ta) va sog'lqini saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (81 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi axborot va aloqada (-0,6 f.p.dan), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,1 f.p.), savdoda (-0,3 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,1 f.p) kamayganligi, buning natijasida tashish va saqlashda (+0,0 f.p.), qurulishda (+0,1 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.dan), sanoatda (+0,7 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.08.2017 y.	01.08.2018 y.	farqi (+)
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	5,4	5,3	-0,1
Sanoat	20,4	21,1	0,7
Qurilish	8,1	8,2	0,1
Savdo	21,6	21,3	-0,3
Tashish va saqlash	4,0	4,0	0,0
Yashash va ovqatlanish	4,4	4,5	0,1
Axborot va aloqa	4,1	3,5	-0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiu ximoya	2,5	2,4	-0,1
Boshqa turlar	29,6	29,8	0,2

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 avgust holatiga 22378 tadan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8347 ta, oilaviy korxonalar – 2566 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10927 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 51 tani va boshqalar 487 tani tashkil etadi.



Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 234 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 54 taga yoki 30,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 166 tasi qo'shma korxonalar, 68 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 91 ta (38,9 %), Qo'qon 37 ta (15,8 %), Marg'ilon 17 ta (7,3) shaharlarida, Farg'ona tumanida 13 ta (5,5 %) va Quvasoy shahar 13 ta (5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,9 %), Furqat tumani 2 ta (0,9 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,3 %), Bag'dod tumani 3 ta (1,3 %), Buvayda tumani 3 ta (1,3 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,3 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 167 ta (71,4 %), savdoda 26 ta (11,1 %), boshqa turlarida esa 11 ta (4,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 2 ta (0,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 4 ta (1,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (2,1 %), qurilishda 5 ta (2,1 %), tashish va saqlashda 4 ta (1,7 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10 ta (4,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turi ga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 34 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan yoki 30,1 foizga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 23 ta, savdoda 8 ta, sog'liqni saqlashda 1 ta va qurilishda 1 ta, boshqa korxonalarda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 11,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4254 tasi (19 %) Farg'ona, 3298 tasi (14,7 %) Qo'qon, 2427 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlari, 1205 tasi (5,4 %) Uchko'prik va 1121 tasi (5,0 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6003 tasi (26,8%) – savdoda, 5897 tasi (26,4 %) - sanoatda, 2298 tasi (10,3 %) - qurilishda, 1440 tasi (6,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1268 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1112 tasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 974 tasi (4,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 480 tasi (2,1 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2906 tasi (13,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 2372 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,4 foizga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (435 ta), Qo'qon (310 ta), Marg'ilon (208 ta) shaharlarida, Oltiariq (148 ta) va Buvayda (144 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (41 ta), Beshariq (70 ta) hamda Qo'shtepa (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (725 ta), savdo-da (540 ta), boshqa turdag'i xizmatlar (284 ta), qurilishda (279 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (169 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (135 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (58 ta), tashish va saqlashda (102 ta) hamda sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (80 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 2566 tani tashkil etib, ulardan 2533 tasi yoki 98,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **24,1**%ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 48,6 % yoki 1247 tasi sanoat, 13,3 % yoki 340 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,3 % yoki 342 tasi savdo, 9,5 % yoki 244 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 % yoki 59 tasi tashish va saqlash, 1,2 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 34 tasi qurilish, 0,8 % yoki 20 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,7 % yoki 248 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'lumi
Nashr uchun mas'ul: E.Ro'ziboyev

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

(0371) 230-87-36